BUDJET SIYOSATI VA DAVLAT MOLIYASI BARQARORLIGI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	1154
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
RESTORAN XIZMATLARI SOHASIDA REJALASHTIRILGAN ISTE‘MOL XULQ-ATVORI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	1159
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
MASHINASOZLIK KORHONALARIDA RAQAMLI EGIZAKLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	1163
Yusupov Azamat Alijonovich	
SUN‘IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARNING PERSONALNI BOSHQARISHDAGI O‘RNI VA SAMARADORLIGI	1168
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
MOLIYAVIY HISOBOTDA FIRIBGARLIK VA XATOLARNI ANIQLASH MASALALARI	1173
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR FAOLIYATI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA‘MINLASHNING OSIYO MAMLAKATLARI TAJRIBALARI.....	1178
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	



XALQARO TAJRIBA ASOSIDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1183
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI ORQALI KREDIT RISKLARNI BOSHQARISH.....	1187
Anvarov Asliddin Nabijon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY NAZORATNING AHAMIYATI	1191
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK– DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH	1195
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ АО «УЗБЕКНЕФТЕГАЗ» ПО ВНЕДРЕНИЮ МСФО 15 НА КОНТРАКТЫ С ПОКУПАТЕЛЯМИ	1201
Тошпулатова Мунисабону Иброхим кизи	
BUXORO VILOYATI AGROSANOAT SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNING JORIY ETISH HOLATI, HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	1209
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	



BUXORO VILOYATI AGROSANOAT SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNING JORIY ETISH HOLATI, HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Tuksanov Ilxomjon Ismatovich

Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining
Buxoro viloyat boshqarmasi bosh mutaxassisi
Qisqa “O‘zagroinspeksiya”ning Buxoro viloyat boshqarmasi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Maqolada Buxoro viloyati agrosanoat tarmoq korxonalarida innovatsion marketing dasturlaridan foydalanishning milliy xususiyatlari aniqlanib, uni rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: marketing, an'anaviy marketing, innovatsiya, innovatsion marketing, agrosanoat jozibadorligi, marketing vositalari, agromarketing.

Abstract. The article identifies the national characteristics of using innovative marketing programs in agro-industrial enterprises of the Bukhara region and develops scientific proposals and practical recommendations for their further development.

Keywords: marketing, traditional marketing, innovation, innovative marketing, agro-industrial attractiveness, marketing tools, agromarketing.

Аннотация. В статье выявляются национальные особенности использования инновационных маркетинговых программ на агропромышленных предприятиях Бухарской области, а также разработаны научные предложения и практические рекомендации по их дальнейшему развитию.

Ключевые слова: маркетинг, традиционный маркетинг, инновации, инновационный маркетинг, агропромышленная привлекательность, маркетинговые инструменты, агромаркетинг.

KIRISH

Jahon xo'jaligi amal qilishida agrosanoat tarmog'i turli milliy iqtisodiyotlar sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash xavfsizligiga erishish, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hisobiga sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, mazkur tarmoqlarning investitsion jozibadorligini oshirish orqali yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish hisobiga iste'molchilarni jalb etish salohiyati nisbatan yuqori bo'lgan, mamlakat milliy iqtisodiyotining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan barqarorligi hamda xavfsizligini ta'minlash imkonini beruvchi strategik ahamiyati yuqori bo'lgan tarmoqlar qatorida o'rin egallashi bilan xarakterlanadi. Shu sababli har qanday mamlakatlar o'z milliy agrosanoat tarmoqlarining global darajadagi raqobatbardoshligini ta'minlash, jumladan, sohaning jozibadorligini oshirish orqali iste'molchilar talablariga mos keladigan mahsulotlar ishlab chiqarish amaliyotini rivojlantirish borasida davlat tomonidan amalga oshiriladigan islohotlar samaradorligini ta'minlashga ustuvorlik qaratadilar.

Xususan, Buxoro viloyati agrosanoat tarmog'i o'zining tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlari, tarmoqning mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik holati, qishloq xo'jaligi va sohada yetishtirilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash



sanoatida bog'dorchilik, uzumchilik, chorvachilik va paxtachilik kabi yo'nalishlari bilan respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan ajralib turadi. Jumladan, so'nggi yillarda hududiy agrosanoat tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, sohada raqobat muhitini yanada bozor elementlari bilan to'yintirib, uni chuqurlashtirish uchun zamin yaratishi natijasida aksariyat tarmoq subyektlari faoliyatida marketing, ayniqsa, innovatsion marketing usullaridan foydalanish amaliyotiga jadallik bilan o'tib borilmoqda. Ushbu vaziyat bugungi kunda hududiy agrosanoat subyektlari faoliyatida qo'llanilayotgan innovatsion marketing usullarini tizimli tartibda tahlil qilish orqali ularni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash zaruriyatini vujudga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umuman olganda, mamlakatimiz iqtisodiy jihatdan qishloq xo'jaligi va mazkur tarmoq mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha yuqori salohiyatga ega bo'lganligi sababli, mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan agrosanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida ko'p sonli ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan hisoblanadi. Jumladan, A. Abdiyev¹ davlat tomonidan qishloq xo'jaligi va sohada yaratilayotgan mahsulotlarni qayta ishlashni qo'llab-quvvatlashda agrar va sanoat tarmoqlari o'rtasidagi integratsion jarayonlarning chuqurlashuvi sharoitida agrosanoat tarmoqlarini shakllanishining milliy xususiyatlari, ularning tarkibiy jihatdan tuzilishi hamda mamlakat milliy iqtisodiyotidagi o'rnini yoritishga qaratilgan tadqiqotlarni o'tkazgan. A.A. Madaliyev² mahalliy agrosanoat tarmoqlarida ilmiy-texnik taraqqiyot va innovatsion rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarning konseptual asoslarini tadqiq etgan bo'lsa, X.S. Asatullayev³ meva va sabzavotchilik sohasida agrosanoat tarmog'ini klasterli usulda rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish zanjirini tashkil etishning samarali usullarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borgan.

Shu bilan birgalikda, A.J. Abdulloyev⁴ mamlakatda iqtisodiy munosabatlarni liberallashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida klasterli usulda tashkil etilgan agrosanoat tarmoqlarida amal qilayotgan boshqaruv amaliyotining uslubiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishlari borasidagi ilmiy izlanishlarni olib borgan bo'lsa, N.N. Asqarov⁵ mahalliy agrosanoat tarmog'ini rivojlantirishda sohada ko'p tarmoqli tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etishning uslubiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishida ilmiy tadqiqotlarni o'tkazgan. D.A. Elov⁶ esa respublika viloyatlari kesimida qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish samaradorligini oshirishda kichik iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi o'zaro kooperatsion munosabatlarni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini taklif etib, mamlakat agrosanoat tarmog'ining jozibadorligini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan isbotlab bergan hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Viloyat agrosanoat subyektlari faoliyatida innovatsion marketing dasturlaridan foydalanish holatini tahlil qilishdan avval hududiy agrosanoat tarmoq xususiyatlariga e'tibor qaratishni lozim topdik. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hududiy statistika boshqarmasi tomonidan umumlashtirilgan tartibda agrosanoat subyektlari soni bo'yicha ma'lumotlar jamlanmaganligi sababli, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2014–2024-yillarda hududiy qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 3,1 martaga ortib, 907 tadan 2839 tagacha ko'paygan bo'lsa, sanoat sohasida ushbu ko'rsatkich 93,1 foizga ortib, ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar soni 1611 tadan 3110 tagacha yetganligi aniqlandi (1-rasm).

1 Abdiyev A. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. Qarshi – 2007. – 270 bet


2 Madaliyev A.A. Agrosanoat sektorida ilmiy-texnik taraqqiyot va innovatsion rivojlanish konsepsiyasi (Monografiya). "Navro'z" nashriyoti, 2020. – 260 bet

3 Asatullayev X.S., Allaberganov Z.G. O'zbekiston Respublikasida klasterli tizim orqali agrosanoat samaradorligini oshirish yo'llari (Monografiya). "Fan va texnologiyalar nashriyot-matba uyi", 2020. – 190 bet

4 Abdulloyev A.J. Agroklastlar faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) diss. avtoref. Buxoro, 2024. – 34 bet.

5 Asqarov N.N. Qishloq xo'jaligida ko'p tarmoqli tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari. I.f.d. (DSc) diss. avtoref. Buxoro, 2025. – 30 bet.


6 Elov D.A. Mintaqalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) diss. Avtoref. Toshkent, 2024. – 30 bet



1-rasm. Buxoro viloyati qishloq xo'jaligi va sanoat sohasida faoliyati yuritayotgan xo'jalik subyektlari soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlikda)⁷

Demak, hududiy agrosanoat tarmog'i tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida xo'jalik faoliyati yuritayotgan korxona va tashkilotlar sonining tahlil etilayotgan davrda ortib borish tendensiyasi hududiy rivojlanish salohiyatidan foydalanish samaradorligi ortishi bilan birgalikda, tarmoqda bozor raqobati kurashi tobora chuqurlashib borayotganligidan dalolat beradi, degan xulosaga kelish mumkin bo'ladi.

Shu bilan birgalikda, respublikaning turli hududlarida bo'lgani singari Buxoro viloyatida ham hududiy rivojlanish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, jumladan, aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, kichik va o'rta turdagi tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarning muntazam ravishda amalga oshirilishi natijasida hududiy agrosanoat tarmoqlarida faoliyat yurituvchi kichik va o'rta turdagi xo'jalik subyektlari sonining sezilarli darajada ortishiga erishildi. Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2014–2024-yillarda hududiy qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3,2 martaga ortib, 880 tadan 2785 tagacha yetgan bo'lsa, sanoat sohasida ushbu ko'rsatkich tahlil etilayotgan davrda 95,5 foizga ortib, 1567 tadan 3064 tagacha ko'payganligi aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. Buxoro viloyati qishloq xo'jaligi va sanoat sohasida faoliyati yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlikda)⁸

Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, viloyat agrosanoat tarmoq tarkibiga kiruvchi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda sanoat tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan subyektlar soni bo'yicha ko'rsatkichlar rivojlanish tendensiyalarida 2022-yildan keyingi davrda kuzatilgan pasayish (1–2-rasmlarga qarang) holatlari hududiy iqtisodiyot amal qilishida bozor raqobati kurashining chuqurlashuvi natijasida ayrim turdagi korxona va tashkilotlar faoliyatining to'xtatilishi, turli kichik va o'rta turdagi agrosanoat subyektlari faoliyatining o'zaro integratsion birlashmalar, jumladan, agroklastlar faoliyatiga qo'shilishi bilan bog'liq jarayonlar hisobiga yuzaga kelgan, degan xulosaga kelish mumkin bo'ladi.

7 Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

8 Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Shuningdek, 2010–2024-yillarda viloyat ishlab chiqarish sanoati tarkibida agrosanoat tarmoq tarkibiga kiruvchi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ulushi 16,4 foizdan 21 foizgacha, ichimliklar ishlab chiqarish 1,1 foizdan 1,4 foizgacha, kiyim-kechak ishlab chiqarish 1,2 foizdan 3,6 foizgacha ortgan bo'lsa, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 31,6 foizdan 19,1 foizgacha kamayganligi (1-jadvalga qarang) aniqlandi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, viloyat sanoat ishlab chiqarishi tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining pasayishi, bir tomondan, ushbu mahsulot turlari ayrim turdagi kiyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqarish uchun oraliq mahsulot sifatida xizmat qilib, viloyatda klasterli yondashuv asosida iste'molga tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan islohotlar sababli hududda ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlarini qayta ishlash hajmi ortganligi, ikkinchi tomondan esa hududiy sanoat ishlab chiqarishi tarkibida boshqa turdagi yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish amaliyotini rivojlantirishga ustuvorlik qaratilayotganligi bilan izohlanadi (1-jadval).

1-jadval. Buxoro viloyati sanoat ishlab chiqarishi tarkibida agrosanoat mahsulotlarining ulushi, foizda⁹

№	Sohalar	Yillar				2010-2024 yy.dagi o'zgarish (+/-)
		2010	2015	2020	2024	
1	Hududiy sanoat ishlab chiqarishi, jami	100,0	100,0	100,0	100,0	O'rtacha yillik o'sish 107,7 foiz
	jumladan:					
2	Oziq-ovqat mahsulotlari	16,4	25,2	16,6	21,0	+4,6%
3	To'qimachilik mahsulotlari	31,6	26,3	18,6	19,1	-12,5%
4	Kiyim-kechak mahsulotlari	1,2	0,4	3,6	3,6	+2,4%
5	Teri va unga tegishli mahsulotlar	0,2	0,1	0,1	0,2	O'zgarishsiz
6	Yog'och (mebeldan tashqari) poxol va to'qish uchun mteriallar	0,1	0,2	0,1	0,1	O'zgarishsiz

Shu o'rinda soha ekspertlari tomonidan viloyatning agrosanoat tarmog'ining hududiy xususiyatlari bo'yicha berilgan ma'lumotlarga to'xtalishni lozim topdik. Hududiy statistika boshqarmasi ekspertlari tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda viloyat agrosanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan subyektlarning umumiy soni 5000 tadan ko'proq bo'lib, tarmoqning ustuvor sohalari sifatida paxtachilik, bog'dorchilik, chorvachilik va uzumchilikni keltirib o'tish mumkin bo'ladi (2-jadval).

2-jadval. Buxoro viloyati agrosanoat tarmog'ining xususiyatlari¹⁰

№	Ko'rsatkichlar	Hududiy tarmoq xususiyatlari
1	Agrosanoat subyektlari soni	Dehqon va fermer xo'jliklarini inobatga olmaganda, agrosanoat subyektlari soni 5000 tadan ortiq hisoblanadi (+5000)
2	Agrosanoatning ustuvor yo'nalishlari	Paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik yo'nalishlari hududiy agrosanoat rivojlanishida ustuvor ahamiyat kasb etadi
3	Eksportga yo'naltirilgan mahsulotlari	Hududiy agrosanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan quritilgan mevalar, to'qimachilik va go'sht mahsulotlari eksportga yo'naltirilganlik holati boshqa mahsulotlarga nisbatan yuqori hisoblandi
4	Infratuzilm ta'minoti	Bugungi kunda hududiy agrosanoat tarmoqlarida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida IT infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan investitsion loyihalaarga ustuvorlik qaratilmoqda

Shu bilan birgalikda, hududiy agrosanoat subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan quritilgan mevalar, to'qimachilik va go'sht mahsulotlari eksportga yo'naltirilgan bo'lib, bugungi kunda tarmoqda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida tarmoq IT infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan investitsion loyihalarga ustuvorlik qaratilayotganligi to'g'risida ma'lumotlar (2-jadvalga qarang) berilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hududiy IT infratuzilma ta'minotini rivojlantirishga qaratilgan investitsion loyihalarning amalga oshirilishi natijasida agrosanoat subyektlari faoliyatida raqamli marketing dasturlaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga erishiladi.

Demak, o'tkazilgan tahlillar asosida Buxoro viloyati hududiy agrosanoat tarmoqlarida xo'jalik faoliyati yuritayotgan subyektlarning iqtisodiy samaradorligi yildan yilga ortib, hududiy agrosanoat rivojlanish

9 Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

10 Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan



salohiyatidan to'laonli foydalanish imkoniyatiga erishilmoqda, degan xulosaga kelish mumkin bo'ladi. Shu o'rinda hududiy agrosanoat subyektlari faoliyatida kuzatilayotgan ijobiy tendensiyalarda marketing dasturlaridan foydalanish amaliyotining tutgan o'zni, jumladan, tarmoq korxonalarida innovatsion marketing usullaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jihatlarini tadqiq etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz (3-rasm).



3-rasm. Buxoro viloyati agrosanoat subyektlari faoliyatida qo'llanilayotgan innovatsion marketing usullari¹¹

Tahlillar bugungi kunda viloyat agrosanoatida nafaqat yirik, balki kichik va o'rta subyektlar faoliyatida innovatsion marketingning raqamli marketing, CRM tizimlari, Big Data tahlili, AR/VR texnologiyalari, ta'sir ko'rsatuvchi (Influencer) marketing hamda eksport (yoki global) marketing turlaridan (3-rasmga qarang) foydalanish amaliyotiga o'tib borilayotganligini ko'rsatdi. Hududiy agrosanoat subyektlari faoliyatida qo'llanilayotgan innovatsion marketing usullarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagi tartibda izohlanadi.

Mahalliy agrosanoat subyektlari faoliyatida raqamli marketing usullaridan korxonalarning veb-saytlarini yaratish (SEO), ijtimoiy tarmoq marketingi (SMM) usullari asosida ishlab chiqilgan kontekstli reklama vositalari orqali o'zlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni targ'ib qilishda deyarli barcha turdagi subyektlar faoliyatiga joriy etilgan hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, kichik turdagi agrosanoat subyektlari o'rtasida ham ushbu marketing usulidan foydalanilayotganligi aniqlandi.

CRM tizimlari marketingidan mahalliy agrosanoat subyektlari o'zlarining mijozlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazalarini yaratish, ular bilan aloqa o'rnatish va o'rnatilgan aloqalarning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rishda hududdagi yirik va eksporter korxonalar faoliyatida keng foydalanilayotgan bo'lsa, o'rta darajadagi subyektlar ushbu tizimni o'z amaliyotlariga joriy etish bosqichida ekanligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, kichik agrosanoat subyektlari mazkur tizimdan foydalanish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi sababli uni amaliyotda qo'llamaydi.

Big Data tahliliga asoslangan marketing usullaridan asosan eksporter hisoblangan va yirik turdagi agrosanoat subyektlari mahalliy hamda tashqi bozorlardagi rivojlanish tendensiyalari, bozor talabi va raqobatchilarning holati bo'yicha ma'lumotlarni jamlash asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish amaliyotini joriy etish bo'yicha ishlarni amalga oshirmoqda.

AR/VR texnologiyalariga asoslangan marketing dasturlaridan ham asosan hududiy yirik agrosanoat subyektlari va soha eksporterlari o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarni virtual muhitda namoyish qilish orqali iste'molchilar e'tiborini tortishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rishda foydalanish amaliyotiga o'tmoqda. Mazkur marketing usuli tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatidan foydalanish samaradorligini oshirish bilan birgalikda, korxona mijozlariga u tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha ma'lumotlarni istalgan vaqtda hamda istalgan formatda taqdim etish imkoniyatini yaratib, korxona bilan mijoz o'rtasidagi o'zaro aloqalarning ishonchlilik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ta'sir ko'rsatuvchi (Influencer) marketing dasturlari mahalliy agrosanoat tarmoqlarining eksporterlari faoliyatida rivojlangan bo'lib, bugungi kunda tarmoqdagi yirik korxonalar, jumladan, agroklastlar faoliyatida ham ushbu marketing usulidan foydalanish amaliyotini yo'lga qo'yishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yuqorida keltirilgan Big Data tahlili va AR/VR texnologiyalariga asoslangan marketing usullaridan foydalanish amaliyotida bo'lgani singari, ta'sir ko'rsatuvchi (Influencer) marketing usulidan foydalanishda ham kichik va o'rta turdagi agrosanoat subyektlari faoliyatida moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi muammosi kuzatilmoqda. Ushbu usuldan foydalanishda mahalliy agrosanoat subyektlari turli katta auditoriyaga ega bo'lgan bloggerlar, yuqori martabali shaxslar va ommaviy ta'sir doirasi yuqori bo'lgan kishilar orqali korxona mahsulotlarini reklama qilish asosida bozor qamrov darajasini oshirishga erishmoqda.

11 Muallif tomonidan tuzilgan

Eksport (yoki global) marketing usulidan hududdagi yirik va eksporter hisoblangan agrosanoat subyektlari amaliyotida faol darajada foydalanilayotgan bo'lsa, o'rta turdagi subyektlar ushbu marketing usulini o'z amaliyotlariga qisman joriy etish bosqichida bo'lib, mazkur shakldagi subyektlar o'rtasida ushbu usuldan foydalanish keng darajada ommalashmaganligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birgalikda, kichik turdagi agrosanoat subyektlari amaliyotida mazkur marketing usulidan deyarli foydalanilmasligi aniqlandi.

Demak, Buxoro viloyati hududiy agrosanoat subyektlari faoliyatida innovatsion marketing dasturlaridan foydalanish amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan umumiy xususiyatlarni aniqlashda subyektlarni kichik, o'rta, yirik va eksporter korxonalarga guruhlash asosida tahlillarni davom ettirish olinadigan xulosalarning yanada aniqligini ta'minlash imkonini beradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hududiy agrosanoat subyektlari tarkibida bugungi kunda nafaqat yirik, balki kichik turdagi korxonalar ham agroklastlar bilan o'zaro integratsion munosabatlarni yo'lga qo'yish asosida eksporter korxonalar qatoridan o'rin egallamoqda. Mazkur vaziyatda markaziy agroklastlar subyektlari tomonidan uning tarkibiga qo'shilgan korxonalar maqsadlari hamda ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlaridan kelib chiqib, umumiy marketing dasturi amalga oshirilmoqda. Shu sababli, har qanday shakldagi eksporter korxonalar faoliyatida qo'llanilayotgan innovatsion marketing usullari bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni alohida guruh sifatida baholashni lozim topdik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxoro viloyati agrosanoat subyektlari shakllari bo'yicha innovatsion marketing usullaridan foydalanish holati bo'yicha qiyosiy tahlil natijalarini o'zida aks ettirgan qiyosiy tahlil jadvalida keltirib o'tilgan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirishga erishildi:

Kichik shakldagi agrosanoat subyektlari faoliyatida asosan SMM, ya'ni ijtimoiy tarmoq marketingi usulidan ustuvor darajada foydalanilib, bunda Telegram va Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlarda korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni reklama qilishga ustuvorlik qaratilganligi aniqlandi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, kichik agrosanoat subyektlari faoliyatida internet va raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion marketing usullarini joriy etish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlari yetarli darajada emasligi bilan bog'liq holatlar aniqlandi.

Hududiy agrosanoat tarmog'ining o'rta darajadagi subyektlari faoliyatida innovatsion marketing usullaridan foydalanishda CRM marketingi va raqamlashtirilgan dasturlar orqali avtomatlashtirilgan marketing tizimlarini amaliyotga joriy etish darajasi sust bo'lib, bunda moliyaviy resurslar tanqisligi ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birgalikda, o'rta darajadagi agrosanoat subyektlari asosan kichik subyektlar faoliyatida bo'lgani singari Telegram va Instagram ijtimoiy tarmoqlarida SMM marketingi usulidan faol darajada foydalanib, nafaqat mahsulotni reklama hamda targ'ib qilish, balki korxonalar iste'molchilari bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish samaradorligini oshirishga erishilmoqda.

Yirik agrosanoat subyektlari faoliyatida raqamli va eksportga yo'naltirilgan innovatsion marketing usullaridan faol darajada foydalanilib, ushbu guruhga kiruvchi korxonalar faoliyatida CRM tizimi marketingi amaliyoti ham yo'lga qo'yilganligi bilan xarakterlanadi. Yirik agrosanoat subyektlari faoliyatida qo'llanilayotgan innovatsion marketing usullaridan o'zaro mutanosiblikda foydalanish asosida turli raqamlashtirilgan onlayn platformalar orqali o'z mahsulotlarini reklama va targ'ib qilish, shuningdek, sotuv kanallarini kengaytirish hamda tashqi bozorlarda korxona brendini mustahkamlash bo'yicha ishlarga ustuvorlik qaratilayotganligi bilan xarakterlanadi (4-jadval).

4-jadval. Buxoro viloyati agrosanoat subyektlari shakllari bo'yicha innovatsion marketing usullaridan foydalanish holati bo'yicha qiyosiy tahlil¹²

№	Innovatsion marketing usullari	Agrosanoat subyektlari turlari			
		Kichik korxona	O'rta korxona	Yirik korxona	Eksporter korxona
1	Raqamli marketing	Qisman joriy etilgan	Joriy etilgan	To'liq joriy etilgan	To'liqroq joriy etilgan
2	CRM-tizimlari marketingi	Joriy etilmagan	Qisman joriy etilgan	Joriy etilgan	Joriy etilgan
3	Big Data tahliliy marketingi	Joriy etilmagan	Joriy etilmagan	Qisman joriy etilgan	Qisman joriy etilgan
4	AR / VR texnologiyali marketing	Joriy etilmagan	Joriy etilmagan	Qisman joriy etilgan	Qisman joriy etilgan
5	Ta'sir ko'rsatuvchi (Influencer) marketing	Joriy etilmagan	Joriy etilmagan	Qisman joriy etilgan	Joriy etilgan
6	Eksport (global) marketing	Joriy etilmagan	Qisman joriy etilgan	To'liqroq joriy etilgan	To'liq joriy etilgan

12 Muallif tomonidan tuzilgan



Hududiy agrosanoatning eksporter hisoblangan korxonalari faoliyatida tashqi bozorlarda yuqori darajada raqobatbardoshlikka erishish, korxonaning rivojlanish strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib bozor talabini samarali qondirishga qaratilgan marketing strategiyalari tarkibida raqamli, CRM tizimlari, ta'sir etuvchi va global marketing usullaridan to'liq darajada foydalanish bilan birgalikda Big Data tahlili hamda AR/VR texnologiyalariga asoslangan marketing usullarini o'z amaliyotlariga joriy etishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni boshlab yuborgan hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayrim yetakchi eksporter hisoblangan korxonalar faoliyatida yuqoridagi 4-jadvalda keltirib o'tilgan olti turdagi innovatsion marketing usullaridan bir vaqtning o'zida o'zaro mutanosiblikda foydalanilayotganligi aniqlandi.

O'tkazilgan tahlillar asosida Buxoro viloyatining hududiy agrosanoat subyektlari faoliyatida raqamli marketing usuli keng qo'llaniladigan innovatsion marketing dasturi sifatida namoyon bo'layotganligi aniqlandi. Shu bilan birgalikda, CRM tizimlari, Big Data tahlili va AR/VR texnologiyalarga asoslangan innovatsion marketing dasturlaridan moliyaviy jihatdan katta salohiyatga ega bo'lgan yirik va eksporter agrosanoat subyektlari kichik va o'rta turdagi subyektlarga nisbatan faol darajada foydalanish amaliyotiga o'tib borishmoqda. Umumiy holatda hududiy agrosanoat subyektlari o'rtasida innovatsion marketing usullaridan foydalanish bo'yicha chuqur tajribalar eksporter va yirik subyektlar amaliyotida to'planganligi bilan xarakterlanadi.

Yuqorida viloyat agrosanoat subyektlari tomonidan innovatsion marketing usullaridan foydalanish bo'yicha shakllantirilgan umumiy xulosalardan kelib chiqib, kelgusi yillarda tarmoqda xo'jalik faoliyatida innovatsion marketing usullaridan foydalanish amaliyotini kengaytirish orqali yuqori darajadagi jozibadorlikka erishish bo'yicha quyidagi tavsiyalarga asoslanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, hududiy agrosanoat tarmoq tarkibiga kiruvchi fermer va dehqon xo'jaliklari, jumladan, qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlovchi kichik va o'rta sanoat korxonalari uchun innovatsion marketing usullaridan foydalanish amaliyoti bo'yicha hududda yetakchilik qilayotgan yirik va eksporter korxonalar marketologlari hamda soha mutaxassislari tomonidan innovatsion marketing usullarini amaliyotga joriy etish ustuvorliklari bo'yicha treninglarni tashkil etish asosida hududiy ichki tajriba almashinish dasturini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Bu orqali hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatida sinovdan o'tgan tajribalarni innovatsion marketing usullaridan foydalanish amaliyoti bo'yicha nisbatan ortda qolayotgan subyektlar tomonidan o'zlashtirilishi hisobiga mazkur yo'nalishdagi xarajatlar marjasini sezilarli darajada kamaytirishga erishiladi.

Ikkinchidan, hududda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, xususan, chekka hududlarda internet ta'minoti bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga qaratilgan investitsion loyihalarga ustuvorlik qaratish, jumladan, bu turdagi loyihalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmidan foydalanish maqsadga muvofiq. Hududda raqamli infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan davlat investitsion loyihalarini tizimli tartibda amalga oshirilishi nafaqat agrosanoat, balki viloyat iqtisodiyotining boshqa tarmoqlarida ham innovatsion marketing dasturlaridan foydalanishning infratuzilmaviy ta'minoti samaradorligi ortishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, hududiy agrosanoat subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishda Big Data tahliliy marketingi usulidan foydalanishga ustuvorlik qaratish orqali tashqi bozorlar, ayniqsa, xo'jalik subyektlari tomonidan tanlangan bozor segmenti holati, iste'molchilar talabi, ularning daromadlari, shuningdek, raqobatchilarning dastlabki iqtisodiy va ishlab chiqarish portretlarini shakllantirishga erishilib, aniq maqsadli guruhlar talabiga mos keladigan mahsulotlar taklifi hajmi ortib, mahsulotlar eksporti hajmini kengaytirishga erishish mumkin bo'ladi.

Umuman olganda, yuqorida keltirib o'tilgan takliflar Buxoro viloyati hududiy agrosanoat tarmog'ida innovatsion marketing usullaridan foydalanish amaliyotini yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarib, tarmoqning nafaqat milliy iqtisodiyot, balki global bozorlardagi jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдиев А. Агросаноат мажмуаси иқтисодиёти: Ўқув қўлланма. Қарши – 2007. – 270 бет
2. Мадалиев А.А. Агросаноат секторида илмий-техник тараққиёт ва инновацион ривожланиш концепцияси (Монография). "Наврўз" нашриёти, 2020. – 260 бет
3. Асатуллаев Х.С., Аллабергаанов З.Г. Ўзбекистон Республикасида кластерли тизим орқали аагросаноат самарадорлигини ошириш йўллари (Монография). "Fan va texnologiyalar nashriyot-matba uyi", 2020. – 190 бет
4. Abdulloyev A.J. Agroklasterlar faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) diss. avtoref. Buxoro, 2024. – 34 bet.
5. Asqarov N.N. Qishloq xo'jaligida ko'p tarmoqli tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari. I.f.d. (DSc) diss. avtoref. Buxoro, 2025. – 30 bet.
6. Elov D.A. Mintaqalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) diss. Avtoref. Toshkent, 2024. – 30 bet

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100